

**RESPUBLIKA HUDUDLARIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHDA  
XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINI NAZORAT QILISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Mustaqil izlanuvchi*

*Otamurodov Nuriddin Najmuddinovich*

**Annotatsiya:** maqolada soliq nazorat qilishni nazariy masalalari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasining yangi Soliq Kodeksiga kiritilgan soliq nazorati normasining mohiyati ochib berilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budgeti to'g'risida" gi O'RQ-589-sonli va 2019-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-599-sonli Qonunlari mamlakatimizda soliq budget siyosatini takamillashtirishda asos bo'ladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'lib hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy nazorat, soliq tekshiruvlari, soliq ma'murchiligi, soliq audit, auditning xalqaro standartlari, dalolatnama, xulosa, qaror.

O'zbekiston Respublikasida soliq ma'murchiligi mexanizmlari samaradorligini oshirish, soliq majburiyatini mustaqil ravishda bajarish uchun qulay sharoit yaratish, soliq sohasini islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida ko'plab xorijiy mamlakatlarda global inqiroz va pandemianing iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va biznesni qo'llab-quvvatlashda soliq mexanizmi orqali keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, biznesga soliq yuki va soliq stavkalarini kamaytirish, soliqlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash, eksportni rag'batlantirish va aholi

bandligini ta'minlash bo'yicha soliq imtiyozlarini qo'llash, shuningdek, soliq tizimini raqamlashtirish va soliq ma'muriyatçiligi shaffofligini oshirish, biznesni yuritish uchun qulay investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhitini yaratish hamda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish kabi yo'naliшlardagi ilmiy tadqiqotlarga e'tibor qaratilmoqda. Soliq tizimi iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'naliшlariga erishishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktyabrdagi "Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5252-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini takomillashtirish, zamonaviy axborot yechimlarini joriy etish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish, shuningdek, ushbu sohada ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilindi. Aholiga xarid qilingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir qismini qaytarish va aniqlangan soliqqa oid huquqbazarliklar holatlari to'g'risida soliq organiga xabar bergenlik uchun mukofot to'lash orqali jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirishni rag'batlantirish bo'yicha joriy etilgan vositalarni amaliyotga tatbiq etilishini taqozo etdi. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida savdo va xizmatlar ko'rsatish sohasida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirishga doir mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun sotib olingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir qismini jismoniy shaxslarga qaytarish tartibini ishlab chiqish hamda aniqlangan soliqqa oid huquqbazarlik holatlari to'g'risida maxsus dastur orqali soliq organlariga xabar bergen jismoniy shaxslarga haq to'lash tartibini ishlab chiqish zarurdir. Chakana savdo va aholiga xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektlari aholi bilan hisob-kitob qilish joylarida, shuningdek, kirish joyida va xaridorga ochiq bo'lgan boshqa joylarda mijozlarga maxsus mobil ilova orqali tovarlarni

(xizmatlarni) sotuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektining ro‘yxatdan o‘tganlik to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlarni o‘qish imkonini beruvchi maxsus QR-kodni joylashtirishlari shartligi, savdo va umumiyligi ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatishda foydalaniladigan, shu jumladan virtual nazorat-kassa mashinalari sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan avtomatlashtirilgan hisob tizimlari soliq organlarining axborot tizimlari bilan majburiy integrasiya qilinishi kerak bo‘ladi. Soliq organlarining maxsus mobil ilovasi orqali ro‘yxatdan o‘tkazilgan fiskal belgili cheklar bo‘yicha sotib olingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir qismini qaytarish, cheklarni belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan oydan keyingi oyning o‘n beshinchini kunigacha amalga oshiriladi. Soliq organlariga sayyor soliq tekshiruvlarini o‘tkazish doirasida planshetlar va boshqa kompyuter texnikasidan foydalanish, shuningdek, elektron raqamli imzo (barmoq izi yoki grafik imzo) dan foydalangan holda sayyor soliq tekshiruvlari bilan bog‘liq hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirish huquqi berilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sotib olingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir qismini jismoniy shaxslarga qaytarish tartibini ishlab chiqishda quydagilar taklif etiladi:

Tartibda jismoniy shaxslarga, xorijiy davlatlar fuqarolariga, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga (keyingi o‘rinlarda jismoniy shaxslar) nisbatan qo‘llanilishi;

Jismoniy shaxslar tomonidan sotib olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha fiskal belgili chek soliq organlarining maxsus mobil ilovasi orqali ro‘yxatdan o‘tkazilgan taqdirda ushbu tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir foizi qaytarilishi;

Sotib olingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir qismini qaytarish chakana savdo, umumiyligi ovqatlanish va maishiy xizmat ko‘rsatish ob’ektlarida xarid qilingan tovarlar (xizmatlar) uchun amalga oshirilishi;

Jismoniy shaxs tomonidan fiskal belgili chekni soliq organlarining maxsus mobil ilovasida ro‘yxatdan o‘tkazish matritsali shtrix-kod (QR-kod) yordamida

cheklarning fiskal belgisini skanerlash va quyidagi majburiy rekvizitlarni to‘ldirish yo‘li bilan amalga oshiriladi:

Jismoniy shaxs sotib olingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir qismini qaytarib olishi uchun fiskal belgili quyidagi tushumlar soliq organlarining maxsus mobil ilovasida ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi:

berilgan kundan boshlab o‘ttiz kalendar kundan keyin;

buning uchun avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki sotib olingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining bir qismi qaytarilganda;

avtomobil sotib olish natijasida olingan, havo va temir yo‘l chiptalari, kommunal va aloqa xizmatlari uchun to‘lovlar ko‘rsatilmagan xizmatlar;

sotuvchining sotib olish nomenklaturasida bo‘lmagan tovarlar uchun olingan yoki sotuvchi tomonidan sotib olingan tovarlar sonidan ko‘p bo‘lgan tovarlar uchun.

Jismoniy shaxs tomonidan sotib olingan tovarlar (xizmatlar) qiymatining O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasi 16-bandiga muvofiq olingan qismi bunday jismoniy shaxsning jami daromadiga kiritilmaydi. Soliq organlari yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan mablag‘larni Moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilikning maxsus hisob raqamiga o‘tkazish muddatlari buzilgan taqdirda soliq qarzlarini undirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan majburiy undirish choralarini qo‘lanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Soliqqa oid huquqbazarliklar horlatlari aniqlanganligi holatlari bo‘yicha soliq organlarini xabardor qilgan jismoniy shaxslarga mukofot to‘lash to‘g‘risidagi tartibni ishlab chiqishda quydagilarni inobatga olish kerak:

Jismoniy shaxslar tomonidan aniqlangan soliqqa oid huquqbazarliklar holatlari bo‘yicha soliq organlarini xabardor qilish soliq organlarining “Soliq hamkor” (keyinchalik-maxsus dastur) maxsus axborot tizimi orqali amalga oshirilishini nazorati;

Aniqlangan soliqqa oid huquqbazarliklar holatlari soliq organlarini maxsus dastur orqali xabardor qilgan jismoniy shaxslar uchun bir martalik pul mukofoti shaklidagi rag‘batlantirish belgilanishi;

Aniqlangan soliqqa oid huquqbazarliklar holatlari uchun bir martalik pul mukofoti tarzidagi rag‘batlantirish Soliq kodeksining 221-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan soliq huquqbazarliklari uchun belgilangan jarimalarning yigirma foizi miqdori; tur orqali aniqlangan soliq huquqbazarliklari faktlari to‘g‘risida soliq organlarini xabardor qilgan jismoniy shaxsga to‘lov aybdor shaxs tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan jarima to‘liq to‘langanidan keyin amalga oshirilishi inobatga olish zarur.

Mukofotlarni moliyalashtirish aybdor shaxsndan undirilgan jarimalari hisobiga quyidagi tartibda amalgan oshiriladi:

undirilgan jarimaning 20 foizi jismoniy shaxsga to‘lab beriladi;

undirilgan summaning 80 foizi qonunchilikda belgilangan tartibda Davlat byudjeti va Davlat soliq qo‘mitasining moddiy yordam, ijtimoiy himoya, soliq organlarini rivojlantirish va ko‘zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg‘armasi o‘rtasida taqsimlanadi. Mukofotlash quyidagi shartlarga bir vaqtda amal qilgan holatda amalga oshiriladi:

agarda jismoniy shaxs tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar haqiqatga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa va aybdor shaxsga nisbatan soliq organi yoki sudning javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarori qonuniy kuchga kirgan bo‘lsa;

aybdor shaxs tomonidan qonunchilikda ko‘zda tutilgan jarimani to‘lash to‘liq amalga oshirilgan bo‘lsa.

Aniqlangan soliqqa oid huquqbazarliklar holatlari bo‘yicha xabardor qilish soliq organlarining maxsus dasturi orqali quyidagi ma’lumotlarni ko‘rsatgan holda amalgan oshiriladi:

sodir etilgan soliqqa oid huquqbazarligi;

soliqqa oid huquqbazarlik sodir etgan soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

soliqqa oid huquqbazarlik sodir etilgan sana.

Bu taklifimiz orqali bugungi kunda mazkur qaror bo‘yicha tartibni amalga oshirish uchun texnik imkoniyalar mavjud bo‘lib, ortiqcha ovoragarchiliklar oldi olinadi, ortiqcha sarf xarajat qisqartiriladi hamda shaffof tizim yaratilishiga imkon beradi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021 yil 4 oktyabrdagi PQ-5252-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Normurzaev U. Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarini berish orqali samarali usullardan foydalanish yo‘llari //Ekonomika i obrazovanie. – 2021. – №. 3. – S. 91-95.

Normurzaev U. K. Amendments and additions to the tax code of the republic of uzbekistan on tax privileges in 2021. – 2021

Normurzaev Umid Xolmurzaevich Xukumatimiz tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlarining hisobini yuritish va samaradorligini tahlil qilish masalalari // Ekonomika i finansy (Uzbekistan). 2021. №10 (146). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ukumatimiz-tomonidan-berilayotgan-soliq-imtiyozlarining-isobini-yuritish-va-samaradorligini-ta-lil-ilish-masalalari> (data obrazeniya: 17.01.2023)

Normurzaev U. X. 2021 yildagi soliq ma’murchiligi hamda soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘sishimchalar yuzasidan //Internauka. – 2021. – T. 6. – №. 182 chast 2. – S. 99.